

Buyuk shoirga ehtirom

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi "Buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosini taminlash maqsadida yurtimizda bu yil ko'plab ilmiy anjumanlar, xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbirdan biri shu yilning 24-dekabr kuni Alisher Navoiyning 580 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining "Xamsa" zalida bo'lib o'tdi. "Alisher Navoiyning e'zozlanishi" mavzusida tashkil etilgan ushbu ilmiy-adabiy anjuman O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va Madaniyat vazirligi Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirni Muzey direktori, professor Jabbor Eshonqulov ochib berdi. Shundan so'ng akademik Naim Karimov so'zga chiqib, yig'ilganlarga urush yillarida shoir ijodini rus olimlari tomonidan o'r ganilishi haqida "Leningradlik navoiyshunos olimlar jasorati" mavzusida ma'ruza qildi.



O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov "Navoiy g'oyalari hamisha barhayot", Moskvadagi Sharq davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi, professor Ilya Zaytsev "MHMDI saqlanayotgan Hirotda kitobat qilingan Navoiy davriga oid qo'lyozma xususida", Istanbul Madaniyat instituti professori Vohid Turk "Navoiyning Turkiyada o'r ganilishi", filologiya fanlar doktori Maqsud Asadov "Barhayot navoiyshunoslari", O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Sultonmurod Olimov "Alisher Navoiy asarlarining ruscha tarjimalari va jahoniy ahamiyati", filologiya fanlar nomzodi Robiya Rajabova "Navoiy ijodida murojaat san'ati", san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori Laylo Jo'rayeva "Navoiyning musiqiy merosi" mavzularida ma'ruzalar qildi.

Anjuman yakunida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mohichehra Shomurodova "An'anaviy maqomchilik" ta'limi yo'nalishi talabasi Ziyodulla Murtazayev ijrosida Navoiy g'azallaridan parchalar kuylandi.

